

XIII-ASRDA MAMLUKLAR SIYOSIY TIZIMINING EMIRILISHI

Nurmatov Bobir Abdusattorovich*Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi*

Аннотация: Qutuz aynan shu meritokratik tizimning eng mukammal timsolidir. Uning harbiy va siyosiy strategiyasi ijtimoiy ehtiyojlarni muvozanatli hal qilishda tarixiy liderlik modelini yaratdi.

Kalit soʻzlar. harakat, safarbar, liderlik, kulminatsiya, moʻgʻul, magʻlubiyat.

Qutuz meritokratik tizimning eng mukammal timsolidir. Uning harbiy va siyosiy strategiyasi ijtimoiy ehtiyojlarni muvozanatli hal qilishda tarixiy liderlik modelini yaratdi. U shaxsiy ambitsiyani umumiy manfaatga boʻysundirish orqali Mamluklar ierarxiyasidagi ziddiyatlarni vaqtincha muvozanatlashtirishga muvaffaq boʻldi. Biroq uning oʻldirilishi — Biybars tomonidan uyushtirilgan suiqasd — tarixiy zaruratning doimiy barqaror shaklga aylanishi qanchalik murakkab jarayon ekanini isbotlaydi¹⁹.

Qutuz orqali ijtimoiy ehtiyojga berilgan siyosiy javob, barqaror siyosiy institutsiyaga aylanishdan oldinroq ichki raqobatlar, hokimiyat uchun kurash va institutlashtirilmagan tizim muammolariga duch keldi. Bu holat tarixshunoslikda tez-tez uchraydigan “dialektik oʻzgaruvchanlik” fenomenining klassik namunasi sifatida baholanadi: ehtiyojdan tugʻilgan tizim, oʻzining ichki ziddiyatlari tufayli yangi ehtiyojlarni yuzaga keltiradi.

Qutuz Mamluklar siyosiy tizimining oʻziga xos mahsuli boʻlib, bu tizim tugʻma elita emas, balki chetlatilgan ijtimoiy qatlam – quldan chiqqan, ammo harbiy jihatdan tayyorlangan va sadoqatli zodagonlar asosida shakllangandi. Irwin bu tizimni “harbiy meritokratiya” deb ataydi²⁰. Qutuzning ijtimoiy birlashtiruvchilik qobiliyati Ayn Jalut jangida yanada yaqqol namoyon boʻldi. Bu jang nafaqat moʻgʻullar ustidan harbiy gʻalaba, balki musulmon jamiyatining oʻzligini tiklash, "qarshilik orqali oʻzlikni anglash" modelining

¹⁹ The Cambridge History of Islam, Vol. 2, p. 1.

²⁰ Irwin, R. (1986). The Middle East in the Middle Ages: The Early Mamluk Sultanate 1250–1382. London: Croom Helm. p. 41

amaliy in'ikosidir²¹ (Ibn Iyās, 1963; Al-Nuwairi, 1990). Qutuz bu g'alabani jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarni umumiy maqsad atrofida birlashtirish orqali amalga oshirdi. Al-Maqrizi va Ibn Taghribirdi asarlarida Qutuz haqidagi tasvirlar boshqa sultonlardan farqli ravishda idealizatsiyalashgan shaklda keltiriladi. Bu obraz "ijtimoiy timsol"ga aylanadi: Qutuz tarixda davlatni halokatdan saqlagan halok bo'lgan sulton sifatida eslanadi²² (Al-Aini, 2010). Al-Maqrizi Qutuz davrida kam sonli arxitekturaviy obidalar qurilganini tan olsa-da, uning g'alabasi Qohirani madaniy markaz sifatida saqlab qolgan asosiy omil bo'lganini ta'kidlaydi²³ (Al-Maqrizi, 1997).

Shunday qilib, Qutuzning liderligi ijtimoiy-falsafiy manoda "timsoliy konsolidatsiya" jarayonining eng yorqin namunasidir. U shaxs orqali jamiyatning o'zini anglashiga, ruhiy uyg'onishiga va tarixiy xotira orqali birlashuviga sabab bo'lgan. Ijtimoiy falsafa bunday fenomenni jamiyat ontologiyasining shaxs orqali irodaviy ifodalanishi deb talqin qiladi.

Birinchidan, Sayfiddin Qutuzning shaxsiyati va sarkardalik fazilatlarini XIII asr musulmon sivilizatsiyasida shakllanayotgan murakkab siyosiy va ijtimoiy omillar natijasi sifatida yuzaga chiqdi. U o'z zamonasining turli geosiyosiy bosqinchilik, ichki parokandalik va madaniy inqirozlar sharoitida yetishgan lider bo'lib, mamlakatning harbiy va ma'naviy tahdidlar qarshisida birlashishga muhtoj bo'lgan davrida sahnaga chiqdi. Qutuzning liderligi klassik sivilizatsion liderlik modeliga — jasorat, adolat, fidoyilik, ruhiy barqarorlik kabi fazilatlarga asoslanar edi. Uning shaxsiy tarixi — asirlikdan hukmdorlikkacha bo'lgan yo'l — ijtimoiy ongda "qutqaruvchi yetakchi" arxetipini mustahkamlab berdi. Shu bilan u musulmon Sharqidagi liderlik konsepsiyasining tarixiy shakllanishida muhim burilish nuqtasi sifatida namoyon bo'ldi.

Ikkinchidan, Qutuzning siyosiy sahnaga chiqishi mamluklar saltanati ichki siyosiy tuzilmalarining inqirozga yuz tutgan bosqichiga to'g'ri keldi. Mavjud amirliklar o'rtasida raqobat kuchaygan, tashqi dushman — mo'g'ullar tahdidi esa davlatni yo'q qilish darajasiga yetgan edi. Ana shunday sharoitda

²¹ Ibn Iyās. *Badā'i' az-Zuhūr*. Qohira, 1963.; Al-Nuwairi, Ahmad. *Nihayat al-Arab fi Funun al-Adab*. Qohira: Dar al-Kutub, 1990.

²² Al-Aini, Badr al-Din. *'Uqd al-Juman*. Qohira: Dar al-Kutub, 2010.

²³ Al-Maqrizi, Ahmad. *As-Suluk fi Ma'rifa Duval al-Muluk*. Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1997.

Qutuzning hokimiyatni egallashi — bu shaxsiy ambitsiya emas, balki tarixiy zaruratga javob bo‘ldi. U jamiyat ehtiyojlariga mos holda “krizis lideri” sifatida tarixiy sahnaga chiqdi. Qutuz mamluklar tizimida mavjud bo‘lgan ijtimoiy-harbiy elitalar bilan strategik muvozanatni ta’minlab, boshqaruvning kuch markazini qayta shakllantirdi. Bu harakat uning shaxsini ijtimoiy ehtiyoj va tarixiy zarurat dialektikasidagi real va ramziy yetakchiga aylantirdi.

Uchinchidan, Qutuz jamiyatni birlashtirishda klassik siyosiy yetakchilikdan tashqari, ijtimoiy-falsafiy konsolidatsiya mexanizmlarini ishga soldi. Uning shaxsi — dushman tahdidiga qarshi ruhiy safarbarlik, jamiyat qatlamlarini bir g‘oya atrofida uyg‘otish, axloqiy birlashuv va tarixiy o‘zlikni qayta anglash uchun mayoq bo‘ldi. Ayn Jalut jangidagi g‘alaba faqat harbiy yutuq emas, balki Qutuz tomonidan barpo etilgan “timsoliy birlik”ning amaliy ifodasi edi. U jamiyatga o‘zini timsol orqali anglash imkonini berdi — bu esa ijtimoiy falsafada "shaxs orqali ijtimoiy o‘zlikni tashkil qilish" fenomeni sifatida tushuniladi. Qutuz shaxsi jamiyatning tarixiy xotirasida o‘zini anglashga undovchi konsolidatsiyaviy kuchga aylangan bo‘lib, musulmon dunyosi ongida ijtimoiy birdamlikning tarixiy-madaniy tayanchiga aylandi.